


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-yashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-q'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
AZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Ankara Hoji Bayram Veli universiteti fil.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesia)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo,
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Siyosat va xalqaro huquq.
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ohio State University, PhD, prof
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		Ataturk University
			E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti

Tahririyat kengashi

PEDAGOGIKA BO'YICHA

EGAMBERDIYEVA T.	FarDU, p.f.d., prof.	DAVLYATOVA G.	FarDU, p.f.n., dots.
XONKELDIYEV Sh.	FarDU, p.f.d., prof.	BAYDJANOV B.	FarDU, p.f.n., dots.
TOJIBOYEVA H.	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	ABBASOVA N.	FarDU, p.f.f.d., dots.
QURBONOVA B.	FarDU, p.f.d. (DSc), prof	GOFUROVA N.	FarDU, p.f.f.d.
O'RINOVA N.	FarDU, p.f.n., dots.	URAIMOV S.	FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc)

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

X.S.Umarxo'jayeva	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lif sohasi talabalarida ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish usullari	117
D.A.Solixo'jayeva	
Professional ta'lif muassasalarida tahlil olayotgan o'quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi	120
D.Aminova	
Internetda PR kommunikatsiya xususiyatlari	126
U.G'.Abdullaeva	
Ekologik ta'lif-tarbiya ni amalga oshirishga tayyorlashning zamonaviy usullari	132
D.Y.Tashnazarov	
Sportning yunon-rim kurash turida texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining samaradorligi (<i>chap tomoniga bajarish asosida</i>)	135
J.G'.Obidov	
Texnika oliv o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatcion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalariga ta'sir ko'rsatuvchi didaktik manbalarni yaratish hamda zamonaviy o'quv jihozlaridan ratsional foydalanish	144
A.R.Qodirov	
Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini interaktiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	151
M.A.Esonmirzayeva	
Bo'lajak pedagoglarning metakompetentligini rivojlantirish usullari va takomillashtirish yo'llari	156
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistikaning til madaniyati va nutq kompetensiyasini shakllanish tamoyillari	160
G.M.Zoitova, Z.F.Arabjonova	
35-40 yoshdagi ayollarda sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida akvafitness vositalaridan kompleks foydalanish	165
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rim kurashchilarini texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining kinematik asoslarini o'rganish (<i>o'ng tomoniga bajarish asosida</i>)	172
B.Q.Baratov	
Badiiy-tarixiy materiallar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati	181
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs	185
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoiy texnologiya" fanining tuzilishi, mazmuni va takomillashtirish modeli ..	189
N.M.Xodjibolayeva	
Pedagogika fanlari xamkorligi asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy masalalari	196



UO'K: 378.014.15

**EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA'NI AMALGA OSHIRISHGA TAYYORLASHNING
ZAMONAVIY USULLARI**

**ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ-СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПОДГОТОВКИ
ВОСПИТАНИЯ К РЕАЛИЗАЦИИ**

**ENVIRONMENTAL EDUCATION-MODERN METHODS OF PREPARING EDUCATION
FOR IMPLEMENTATION**

Abdullaeva Umidaxon G'ulomiddinovna

Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ekologik ta'lismi va tarbiya'ning nazariy-pedagogik asoslari, ekologik ta'lismi-tarbiya'ni amalga oshirishga tayyorlashning zamonaviy shakl, usul va vositalari o'rorganilgan. Shuningdek,, ekologik ta'lismi-tarbiya'ni amalga oshirishga tayyorlashning zamonaviy usullari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье изучаются теоретические и педагогические основы экологического образования и обучения, современные формы, методы и инструменты подготовки к осуществлению экологического образования и обучения. Также проанализированы современные методы подготовки к реализации экологического образования.

Abstract

This article examines the theoretical and pedagogical foundations of environmental education and training, modern forms, methods and tools of preparation for environmental education and training. Modern methods of preparation for the implementation of environmental education are also analyzed.

Kalit so'zlar: kimyo, ekologiya, biosfera, sog'lom turmush tarzi, ekologik muloqot, pedagogik jarayon, kasbiy-pedagogik faoliyat, integrativ, korporativ, milliy, tarixiy, texnologik, kompetensiya.

Ключевые слова: химия, экология, биосфера, здоровый образ жизни, экологическая коммуникация, педагогический процесс, профессионально-педагогическая деятельность, интегративная, корпоративная, национальная, историческая, технологическая, компетентность.

Key words: chemistry, ecology, biosphere, healthy lifestyle, ecological communication, pedagogical process, professional-pedagogical activity, integrative, corporate, national, historical, technological, competence.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida "Ekologik ta'lismi rivojlantirish konsepsiysi"ning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lismi-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek,, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahoning ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan iborat: «[Ta'lim to'g'risida](#)»gi va «[Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida](#)»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzlusiz ta'lim tizimida ekologik ta'lismi rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta'lismi-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta'limga samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish; ekologik ta'lismi-tarbiya berishni, ekologik bilimlarni targ'ib qilishni, noshirlik faoliyatini, ko'rik-tanlovlar o'tkazishni, ijtimoiy reklama va shu kabilarni tashkil etish; ta'lim dasturlarini mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish va zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish; ta'lim oluvchilarining e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmas manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish; ekologik ta'limga samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish; ekologik ta'limga sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini, barqaror rivojlanishi kafolatlarini va ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot

PEDAGOGIKA

bazasini yaratish; ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat organlari ta'lim sohasining o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish belgilangan. Bu ham ekologik tarbiya ni rivojlantirish yo'lidagi muhim vazifalar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sh.Ochilovning "Fizikani fanlararo o'qitishda o'quvchi ekologik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari" mavzusidagi dissertatsiyasida fizikani fanlararo o'qitishda o'quvchi ekologik kompetensiyasini tuzilmasi va komponentlarini hamda fizikani fanlararo o'qitishda o'quvchi ekologik kompetensiyasini rivojlantirishning metodik shartlari tadqiq etilgan. Tadqiqotchi o'quvchilarda ijtimoiy ekologiyaga doir bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish lozimligi, ayniqsa, fizika va biologiya fanlarini o'qitishda ijtimoiy-ekologik bilimlarning ahamiyati yuqori bo'lishini xulosa qiladi.

N.Mirzayevaning tadqiqotida talabalarining bilimlarni qabul qilish tipologik darajasini o'rganish va ekologik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik-psixologik muammo ekanini ilmiy-nazariy asoslash bilan zamonaviy ekologik ta'lim tizimida benchmarking strategiyasini qo'llab-quvvatlash va qiyosiy tahlil qilinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ekologik ong har bir insonning hayot faoliyatida ekotizimlar uning yashash makoni ekanligini anglash darajasidir. Ekologik ongli insonni har doim ham ekologik madaniyatli, deb bo'lmaydi. Chunki ekologik barqarorlik zaruriyatini anglash hali uni inson o'z faoliyatida tatbiq qildi, degan so'z emas. Ekologik madaniyat ekotizimlar haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va mas'uliyatlari yondashuv hisoblanadi.

"Ekologik madaniyat" tushunchasini shaxs tomonidan nazariy va amaliy ekologik bilimlarni o'zlashtirishning yuqori darajasi deb ta'riflash mumkin. Ekologik kompetensiya shakllanganlik mezonlari, o'z navbatida, ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi", U muayyan jamiyat va jahon madaniyatining rivojlangan bosqichi hamda tarkibiy qismidir. Insonlarning ona tabiatga nisbatan ekologik ongli faoliyatlar ularning ekologik madaniyatlarini belgilaydi.Unda tabiat bilan inson o'rtaсидagi o'zaro oqilona mas'uliyatlari munosabat tarkib topadi. Ekologik madaniyatning tayanch fazilatları sıfatida "axloqiy ekologik onglilik", "ekologik mas'uliyatlilik", "ekologik irodaviylik", "ekologik qadriyatlar"ni belgilab olish lozim.

Ekologik onglilik - "shaxsning ekotizimlarni hissiy bilishi, uning obektlari va unda kechayotgan hodisalarini sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, qiyoslay olishi, ziyraklik va teranlik asosida ekotizimlar muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi" ni anglatadi. Shaxsning bunday xususiyati tabiat bilan har qanday aloqaga kirishganda namoyon bo'lib, jarayon natijasini to'g'ri baholay olishi bilan izohlanadi.

Ekologik ta'lim-tarbiya turli darajalari va yo'nalishlarining mushtaraklashuvi, shu sohalarning "individual" manfaatlarini umuminsoniy manfaatlarga moslashtirishni ifodalaydi. Shu mazmundagi, ekologik faollik va mas'uliyatni oshirishda boshqa faoliyat shakllarining kommunikativ: a'nanalar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va boshqa marosimlarning tarbiyaviy rolini alohida qayd qilish lozim. Bunday ijtimoiy-amaliy hodisalar o'ziga xos ekologik mazmun kasb etadi. Ya'ni, ijtimoiy qadriyatlar majmuasi ekologiyalashgan holda, jamiyatning boshqa ustqurmayi elementlariga ta'sir qiluvchi omilga aylanadi. Xususan, ekologik ta'lim-tarbiya - tegishli yo'nalishdagi mas'uliyatni oshirish bilan, jamiyat ichki-tashqi siyosiy jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi vosita bo'lib qolmoqda. Ekologik faoliyatni tashkil qiluvchi tamoyillarni shaklantirish jarayonida muayyan nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan mehnatkashlarning ekologik tafakkur madaniyati, tushunchalari, xulosalari, amaliy munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy e'tiqodi, umumiyl dunyoqarashi tarkib topadi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim-tarbiya majmuasi - shaxsni faol ekologik ijtimoiy-siyosiy faoliyatga tayyorlab boradi.

XULOSA

Xulosa qilganda, zamonaviy ta'lim-tarbiya sharoitida ekologik ta'lim va tarbiya ni rivojlantirish, atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabati shaklantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil qilish ta'lim oluvchilarda ekologik bilim va ko'nikmalarni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham ekologik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan yangicha yondashulardan foydalanish, turli ta'sir mexanizmlarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qo'yсинов О.А., Муслимов Н.А., Абдуллаева О., Гаипова Н., Каримова Н., Qodirov M. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. –Т.: “Fan va texnologiya”, 2013. - 128 b
2. Shomurotova Sh.X. Oliy ta'lim muassasalarida “Kompleks birikmalar kimyosi” fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Diss. avtoref. Toshkent–2020. –45b.
3. Кулешова М.Е., Мазуров Ю.Л. Экологические функции как основа выявления ценности территорий // Уникальные территории в природном и культурном наследии регионов. М.: РНИИ культурного и природного наследия, 1994.
4. Новик, И.Р. Подготовка компетентного специалиста в системе высшего химико - педагогического образования для работы с одаренными учащимися [Текст]:моногр. / И.Р.Новик. – Н. Новгород: НГПУ, 2013. – 158 с.
5. Соболев Н.А. Региональная стратегия территориальной охраны природы // Критерии и методы формирования экологической сети природных территорий. Вып. 1. – 2-е изд. – М.: Центр охраны дикой природы СоЭС, 1999.